

KUBROVIYA TARIQATI AXLOQIY QOIDALARINING INSONLAR HAYOTIDAGI O'RNI

KUBROVI SECT, THE ROLE OF MORAL PLANNING IN PEOPLE'S LIVES

РОЛЬ НРАВСТВЕННЫХ ПРАВИЛ СЕКТЫ КУБРОВИЯ В ЖИЗНИ ЛЮДЕЙ

Ilmiy rahbar: X.U.Samatov.

Ubaydullayev Aslbek Ma'rufjon o'g'li

TATU Samarqand filiali R.I 23-10 guruh talabasi

e-mail: ubaydullayevaslbek@gmail.com

тел: +998 99 772 16 10

Anotatsiya:

Ushbu maqolada Kubroviylik tariqati asoschisi Najmuddin Kubroning hayot va ijod yo'li haqida qisqacha malumot berib o'tildi. Shu bilan birga, kubroviya tariqatining axloqiy qoidalarini insonlarga ta'siri, asarlarida tariqatning mohiyati, o'ziga xos talab va qoidalari bayon qilib berildi.



Kalit so'zlar: tariqat, diniy maktab, tasavvuf, uzlat, kamolot, rahnamolik va rizo.

Annotation: in this article, a brief description of the life and creative path of Najmuddin Kubro, the founder of the Kubrovian sect, was given. At the same time, the influence of the moral rules of the Kubrovian order on people, the essence of the order, its specific requirements and rules were described in its works.

Key words: Kubrovian sect, religious school, Sufism, uzlat, perfection, leadership and consent.

Mustaqil O'zbekistonimiz bugungi kunda rivojlanib, dunyo davlatlari orasida o'z o'rnini egallab bormoqda. Yangi O'zbekistonni qurishga xalqimiz muhtaram Prezidentimiz boshchiligidagi bel bog'ladi. Ammo bu Vatanni dunyo davlatlari orasida o'z o'rnini egallashida jasorat va ilm-fan namoyandalari, buyuk tarixiy shaxslari ham juda katta hissalarini qo'shganlar.

Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi jasorat, vatanparvarlik namoyandalari va albatta, Najmuddin Kubro ham shular jumlasidandir. Ko'hna

Xorazm o‘z bag‘rida juda ko‘p ilm-fan namoyandalarini ulg‘aytirdi. Shunday ulug‘ insonlardan biri Najmaddin Kubro edi. Najmaddin Kubro- tasavvufning mashhur shayxlaridan biri, kubroviylik tariqatining asoschisidir. Bu ulug‘ shayxning hayoti va faoliyati haqida Doroshukuhning "Safinat ul-avliyo", Rizoqulixon Xidoyatning "Riyoz ul orifin", Sohib Lohuriyning "Xazinat ul-asfiyo", Abdurahmon Jomiyning "Nafahot ul-uns", Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro", XandalloQazviniyning "Tarixi guzida" nomli asarlarida Najmaddin Kubro hayoti, so‘fiylik tariqati va an‘analariga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Najmaddin Kubro 1145-yilda Xiva shahrida dunyoga kelgan. Ushbu buyuk shayxning to‘liq ismi Ahmad ibn Muhammad ibn al-Xevaqiy al-Xorazmiydir. Vaqt o‘tishi bilan Najmaddin - din yulduzi bo‘lib porlagan. Valiyligi shu qadar yuksaklikka yetganki, kimga nazari tushsa, valoyat bo‘lib yetishgan. Shunda Valiytarosh laqabiham qo‘sib aytilgan. U kishining ismlariga Abuljannob degan nom ham qo‘sib aytilgan.¹ Bu borada Jomiy o‘z asarida bayon qilishicha, Najmaddin Kubro Iskandariya shahridagi muhaddis olimlardan hadis ilmini o‘rganib qaytayotganda, bir kecha hazrati Payg‘ambarimizni tushida ko‘radi va u zotga yuzlanib murojaat qilib: "Menga kunya bag‘ishlang"- deydi. Rasululloh s.a.v. Kubroga "Sening kuniyating Abuljannobdunyodan ijtinob, parhez etuvchi bo‘ladi"- deb marhamat qiladilar. Aytishlaricha, Najmaddin shu voqeadan so‘ng tasavvuf yo‘liga kirib, o‘ziga munosib murshid qidira boshlagan. U yoshligidan ilmga berilgan. Taxminan, o‘n olti-on yetti yoshligida vatani Xorazmni tark etib Eron, Misr, Shomu Iroq mamlakatlarini kezadi. U qayerda mashhur bir shayxni eshitib qolsa, tezda u yerga yo‘l olar, izlagan kishisini topib undan sidqidildan ta’lim olardi. Agarda ko‘ngli to‘lmasa ustozidan ijozat so‘rab, boshqa ustoz izlardi. Shu tariqa Tabriz, Nishapur, Tus, Dizful shaharlarini kezib mashhur murshidlardan ta’lim oladi, shariat va hadis ilmlarini, tafsirni chuqur o‘rganib, yetuk bir donishmand olim bo‘lib yetishdi. Ammo Najmaddin Kubro uchun bu hali kam edi. Misrda u Shayx Ro‘zbexon al-Vazzon al-Misriy qo‘liga murid tushadi. Shayx Ro‘zbexondan bir necha yil tariqat odobini o‘rganadi, shayxning qiziga uylanadi. Ammo betoqat Najmaddin yana yo‘lga tushadi va Tabrizga qaytadi. Shunday qilib yigirma besh yil dunyo kezib, ilm olgan Kubro 1185-yilda Xorazmga qaytadi.

¹ . Shihobiddin Muhammad an-Nisoviy. Siyrot us-sulton Jalol ad-din Mengburni (Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti) /Kamol Matyoqubov tarjimasi. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2006.



U bu vaqtida 40 yoshda edi. Xorazmda katta bir xonaqoh qurdirib, tariqatda yangi bir maktab - kubroviya silsilasini asoslab berdi. U insonlarni ezgulikka, ilmga, mardlik va vatanparvarlikka da'vat etdi. Uning qo'lidan yuzlab shogirdlar tarbiyalanib, o'z davrining mashhur tariqat namoyondalari yetishib chiqdi. Shayx Majdiddin Bag'dodiy, Shayx Sayfiddin Boxarziy, Shayx Sa'diddin Xamaviy, Shayx Rukniddin Alouddavla kabi islom olamiga dong'i ketgan mashhur donishmandlar ham Shayx Najmuddin Kubroning muridlari bo'lishgan.

Shayx Najmuddin Kubroning "Al-usul al-ashara", "Risola at-turuq", "Odob ussolikin", "Favoyih ul-jamol" asarlari mavjud bo'lib, bu asarlarni o'qishimiz orqali tariqat ilmi odoblari, nozik jihatlarini bilib olishimiz mumkin. Najmuddin Kubro keng fe'lllik yo'lini tutgan shayxlardandir.² Chunki uning xonaqohida sunniy mazhabdagilar bilan bir qatorda shia mazhabidagi muridlar ham ko'p bo'lgan. Shayx Najmuddin Kubro murid tarbiyalashning o'ziga xos usulini ishlab chiqadi, o'nta talab asosida tariqat yo'llarini bosib o'tish va poklanib, ma'rifat erishish yo'llarini borligini ko'rsatadi. "Al-usul al-ashara", "Risola at-turuq" nomli kitoblarida so'fiylar tarbiyasida quyidagi o'nta talabni muhimligi qayd etiladi:

➤ Tavba - barcha amallarning boshi. O'z gunohini anglab, Alloh Taolo oldida tavba qilgan va bundan keyingi hayotini ilohiy ezgulik va xayrga bag'ishlashga ahd qilgan odamgina tariqatga kira oladi;

➤ Zuhd - taqvo, parhez demak. Zero, taqvo qilgan kishi endi haromdan hazar qilib, halollikka yuz tutishi, Allohdan qo'rqib, Alloh man etgan ishlarni qilmasligi lozim;

➤ tavakkul - o'z amallari, fikri va ishlarida yolg'iz Allohga suyanish demak. Rizqni Alloh beradi, inson takdirini Alloh belgilaydi va inson amallari ham Alloh irodasi doirasida bo'lishi kerak. Chunki yaxshilik va yomonlik, to'qlik va ochlik, boylik va kambag'allik ham Allohdandir. Alloh bizni toat- ibodatga chorlaydi, insonligimizni eslatib turadi. Ammo inson buyuk zaruriyat ichradir. Uning faoliyati, ijodi va qudrati shu Ilohiy zaruriyatdan tashqariga chiqib ketolmaydi. Inson buni anglamog'i lozim. Chunki inson barcha mavjudot kabi foniydir, u abadiy emas. Abadiy faqat Allohnинг o'zi, agar inson abadiyatni xohpasa, Alloh sari intilsin, Poklik olamiga qarab, kamol kasb etsin;

² . Shihobiddin Muhammad an-Nisoviy. Siyrot us-sulton Jalol ad-din Mengburni (Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti) /Kamol Matyoqubov tarjimasi. –Toshkent: “O'zbekiston”, 2006.



- qanoat kamolotning eng maqbul yo'li hisoblanadi. Modomiki inson farishta bilan hayvon orasida turuvchi maxluq ekan, unda ruh va jism kurashi muqarrar bo'lib, kamolot ana shu jism tapablarini enga borish va ruh tapablarini ko'paytirish bilan qo'lga kiradi.³ Qanoat insonni inson qiladi, ma'naviyat bezagi;
- uzlat — tasavvuf ta'limotiga ko'ra insonning ruhi, agar u lokpanish iga moyil bo'lsa, tabiiy ravish da yakkalanish va go'shanishin bo'lishni talab qiladi. Inson ruhi tajril (ajralish) va tafrid (yolg'izlanish) bosqichlarini bosib o'tmasa, mutlaq poklanmaydi. Uzlat — so'fiylarning chilla o'tirishlari, xilvat- lari bilan amalga oshirilgan;
- tavajjuh — kurash, o'zi bilan o'zining kurashi. Solik hamma vaqt yaratganga yuzlanib, undan madad so'rab, unga sari qalban intilmog'i darkor;
- sabr — solikning e'tiqodi, niyatini sinash. Haq yo'li og'ir va mushkul yo'l, uning azobu iztirobiga chidagan kishilargina maqsadga erishadi. Tariqat yo'lovchisi sabr manzilidan o'tsa, ajib bir ruhiy dovondan o'tgan, yangi kuch-qudrat topgan bo'ladi;
- muroqaba — kuzatish, tafakkur - shuurga berilish demak. Tavba-tazarru qilib, zikru toat, sabru sadoqat bilan o'zining ma'rifatini oshirib borgan solik, borabora osoyishta bir holga keladi, Alloh diydori yodida tafakkurga g'arq bo'ladi, olamlarni ruhan sayr qilib chiqadi, ko'z oldiga HAQ TAOLO jamoli va Payg'ambar siymosini keltira oladi Ruhi to'lishib, tasavvur va taxayyuli kengayadi, g'ayb asrori eshiklari yuzaga ochiladi;
- zikr — so'fiy odam har yerda, har doim Allohning ismlarini tilidan qo'ymasligi kerak, kalimalarni, duolarni muntazam takrorlab turishi bilan qalbga Alloh taolo sifatlari va Zoti joyланади. Alloh nuri porlay boshlaydi;
- rizo — solik Alloh qudratini, ilmini chuqur his qilgan holda, o'zini butkul Uning irodasiga topshiradi va Alloh olami bilan huzurlana boshlaydi. Haq unga va u haqqa yaqinlashadi.

Najmuddin Kubroning «Faqirlar haqidagi risola»si insonni tarbiyalash bo'yicha ibrat kitobi sanaladi. Shayx yozadi «Dunyoning bir qismini kezib chiqdim, ko'p ishlarni tajriba qildim, qiyinchiliklarga yo'liqdim, kishilar bilan suhbat qurdim, ulug' ishlarga qadam bosdim, tirikchilikning achchiq-chuchugini todim. Kitoblarga murojaat qildim, olimlar xizmatida bo'ldim, umrni dunyo izlash bilan zoe

³. Isoqova Z. Najmuddin Kubro. –Toshkent: Abu Matbuot-Konsalt, 2011



o‘tkazmadim, ajoyibotlarni ko‘rdim.⁴ Ko‘rdimki, umr dunyodan ko‘ra tez, shoshib yo‘q bo‘lib ketadiganroq, o‘lim oxiratdan ko‘ra yaqinroq, orzudan ko‘ra uzoqroq, xotirjamlikdan ko‘ra go‘zalroq narsa yo‘q ekan....Muvaffaqiyatni sa’yi harakatda, muvafaqiyatsizlikni esa loqaydlik va dangasalikda, baloni tilda, halovatni sukutda ko‘rdim... Ko‘rdimki, eng noyob ne’mat rostgo‘ylik va qahramonlik, eng og‘ir og‘riq esa yomon va munofiq do‘srlar ekan. Ko‘rdimki, Olloh dunyo qulligidan ozodqilgan kishigina haqiqiy hur ekan».

Kubroviya ta’limotining asosini tashkil etadigan komil g‘oyasi bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda ham muhim o‘rin egallaydi. Shayx Najmuddin Kubroning ruboiliali tarbiyaning yorqin namunasidir. Ruboililaridagi tasavvufiy g‘oya komil insonni tarbiyalash, odamni halokatga boshlovchi nafs, xusumat, gumon, ta’ma, nifoq, rivo, fosihlik kabi illatlar bilan bog‘liq gunohlardan, ya’ni salbiy fe’l-atvordan xalos bo‘lib, faqat yaxshi axloq sohibi bo‘lishga, ruhiy poklik yo‘liga kirishga chorlashdan iboratdir:

Har sabzaki suv yaqosida yuz ochmish,
Bir ruhi farishtadur, magar ko‘z ochmish.
Bir hoki parivashki, yomon qo‘yma qadam,
Bu go‘shaki uchun lolavu nargis ochmish...

Shoirning tasavvufiy tushunchasiga ko‘ra, butun mavjudotning birinchi manbai Xudo, u jilolanib moddiy olamdagи borliq narsalarining yuzaga kelishiga sababchi bo‘ladi. Jumladan, inson ham uning jilosidan yaralgan. Shunday ekan, inson o‘zini doimo dildan Haq bilan his etgan chog‘dagina uni har qanday gunohlardan, yomon niyatlardan asrab, unga ruhiy poklik yo‘lini ochib beradi va arshi a’lo kengliklariga ko‘taradi:

Chun haq va talab yo‘liga kirmoq joiz,
Dunyo etagin tutib, yugurmoq joiz.
Ko‘rmoqqa o‘zingni sa’y etgil zero,
Olam ko‘zi birlan uni ko‘rmoq joiz.⁵

Kubroviya ta’limotining asosini tashkil etadigan insonning komil g‘oyasi bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda ham muhim o‘rin egallaydi. Demak, barcha tasavvufiy ta’limotlarning asosiy mohiyati: inson tarbiyasi, inson takomili, axloqi,

⁴. Isoqova Z. Najmuddin Kubro. –Toshkent: Abu Matbuot-Konsalt, 2011

⁵ Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.



insonni ulug‘lash va uni e’zozlashga qaratilgan. Shunga ko‘ra, Shayx Najmuddin Kubroning vatanparvarlik haqidagi qimmatbaho fikri ham hozirgacha benihoyat muhim, dolzarb sanaladi.⁶ Shayxning «Vatan himoyasi yo‘lida shahid bo‘lmoq. Xudo vasliga noil bo‘lmoqdur!» – degan so‘zları payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ning «Vatanni sevmoq – iymondandir», – degan hadisi sharifiga hamohangdir.

Kubro ilohiy ma’rifatni sufiy faqat foniylit holatida, ya’ni butkul o‘zligini yo‘qotib idrok eta oladi, degan fikrga e’tiroz bildiradi va Juvayd Bag‘dodiyining "sahv" (hushyorlik) yo‘lini to‘tib, tafakkuriy-aqliy bilimga e’tiborni qaratadi. Bunday yo‘lni Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband ham ma’qullagan. Kubro inson ruhiy kechinmalari, nozik holatlarini puxta bilgan. Shunga muvofiq "latoif" ("nozik ta’blilik") nazariyasini ishlab chiqqan. Bu nazariyaga ko‘ra, inson ruhi ko‘zga ko‘rinmas latif markazlardan iborat. Bu ong va tuyg‘u, ruh va jism orasidagi bir narsa. Uni ilg‘ab olish mushkul. Ammo inson hayotida bu markazlarning ahamiyati muhim. Sufiy ayni shu markazlarni ilg‘ab olishi lozim. Ana shu "latoif" insonning .

Ilohiy hislatidir. Sufiy riyozatlar, mashqlar davomida bu latoifni turli holatlarning o‘zgarishi, ranglar va shakllarning almashinishi tarzida tasavvur qiladi. Kubro nazarida nuqta, dog‘ va doira murid ruhiy qolatlari o‘zgarishida muhim xizmat qiladi. Doira — falak doiralarining aylanishi, dog‘ — dunyo timsoli, nuqta vaxdatdir. Doira doimiy aylanishda, u dog‘ni ham o‘z ichiga oladi. Ammo bo‘lar markaz tomon, ya’ni nuqta sari intiladi. Nuqta mohiyatini anglash orqali Alloh olamini idrok etsa bo‘ladi.

Shunday qilib, Kubroviya ta’limotining asosini tashkil etadigan komil g‘oyasi bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda ham muhim o‘rin egallaydi. Shayx Najmuddin Kubroning kubroviyya tariqati yoshlat tarbiyasining yorqin namunasidir.⁷ Tariqatdagi tasavvufiy g‘oyalari va ibratli fikrlar, mulohazalar komil insonni tarbiyalash, odamni halokatga boshlovchi nafs, xusumat, gumon, ta’mal, nifoq, riyo, fosihlik kabi illatlar bilan bog‘liq gunohlardan, ya’ni salbiy fe'l-atvordan xalos

⁶ Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.

⁷. Bertels Ye. E., Sufism in sufiiskaya literatura, M., 1965; Komilov N., Najmuddin Kubro, T., 1995; Jo‘zjony A. Sh., Tasavvuf va inson, T., 2001.



bo‘lib, faqat yaxshi axloq sohibi bo‘lishga, doim ilmga intilishga, sof fikrlashga, ruhiy poklik yo‘liga kirishga chorlashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shihobiddin Muhammad an-Nisoviy. Siyrot us-sulton Jalol ad-din Mengburni (Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti) /Kamol Matyoqubov tarjimasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2006.
2. Isoqova Z. Najmuddin Kubro. –Toshkent: Abu Matbuot-Konsalt, 2011
3. Xurshid Davron. Shahidlar shohi yohud Shayx Kubro tushlari. Tarixiy-ma’rifiy qissa. I nashri: T."Yangi asr avlodi", 1998. II nashr: T. „Fan“, 1998.
4. Bertels Ye. E., Sufizm i sufiyskaya literatura, M., 1965; Komilov N., Najmuddin Kubro, T., 1995; Jo‘zjoniy A. Sh., Tasavvuf va inson, T., 2001.
5. Kamilov N., Tassavvuf (2-kitob), T.,1999.
6. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
7. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
8. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
9. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
10. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
11. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
12. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.

